

**INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI
O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL FAOLLIGINI OSHIRISH**

Saliyeva Saidaxon Axmadkul qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "O'zbek tili pedagogika
va jismoniy madaniyat" kafedrasida assistenti

**ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ПОДХОДА**

Салиева Саидагон Ахмадкул кизи.

Ассистент кафедры «Узбекский язык педагогики и физической культуры»

Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий

**INCREASING INTELLECTUAL ACTIVITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS BASED ON INDIVIDUAL APPROACH**

Saliyeva Saidaxon Axmadkul kizi

Assistant of the department "Uzbek language pedagogy and physical culture" of
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotatsiya:. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidori va qobiliyatini rivojlantirishda variativ ta'lim mazmunini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi o'quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'quv jarayoni, o'quvchilar, intellektual, davlat, individual, jamiyat, maqsadlar, pedagogik texnologiyalar, rivojlanish, shaxs

Абстрактный: Сегодня уточнение дидактических параметров интеллектуального развития учащихся на основе индивидуального подхода, совершенствование содержания вариативного образования в развитии талантов и способностей учащихся начальных классов приобретает особое значение в образовательном процессе. Все это свидетельствует о необходимости интеллектуального развития учащихся при индивидуальном подходе.

Ключевые слова: Образовательный процесс, обучающиеся, интеллектуал, государство, личность, общество, цели, педагогические технологии, развитие, личность

Abstract: Today, clarifying the didactic parameters of the intellectual development of students based on an individual approach, improving the content of varied education in the development of the talents and abilities of primary school students is of particular importance in the educational process. All this shows that there is a need for intellectual development of students with an individual approach.

Key words: Educational process, students, intellectual, state, individual, society, goals, pedagogical technologies, development, personality

O'quvchini har tomonlama rivojlantirish muammosining yechimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bugungi kunga qadar ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan ayrim an'analardan voz kechish zaruriyati tug'ilmoqda. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy ta'lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta'minlagan holda o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. O'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta'minlagan holda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, ularning o'quv jarayonidagi taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta'minlash lozim. O'quvchining intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo'lishga undash orqali amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda o'quv jarayoni subyektlariga nisbatan qadriyatli munosabat pedagogik madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Bunday bosqichlarni ajratishda o'quvchilarning ruhiy hamda yosh jihatdan o'ziga xosliklari asos qilib olingan. Ular maktabgacha ta'lim muassasalari, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'smir yoshdagi o'quvchilar hamda talabalarni intellektual jihatdan rivojlantirish

kabi davrlarga bo'linadi. Eng asosiy ahamiyatga ega bo'lgan davr 5-9-sinf o'quvchilarini intellektual jihatdan rivojlantirish davridir. Bunda o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishning bir qator xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. Jumladan, 8-9-sinf o'quvchilarida intellektual faoliyat ko'nikmalari bir qadar shakllangan bo'ladi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarda intellektual faoliyat ko'rsatish ehtiyojlari vujudga kelgan bo'ladi. Ular muntazam tarzda nimanidir loyihalash, qurish, yasash, kashf etishga intiladilar. Ayniqsa o'g'il bolalarda texnik ijodkorlik, qizlarda esa, badiiy ijod qilish faoliyatiga ehtiyoj kuchli bo'ladi.

So'nggi yillarda qizlarda modellashtirish, dizaynlik faoliyatiga bo'lgan intilishning kuchayganligi kuzatilmoqda. Talabalarning intellektual faoliyatga intilishlarini bir qator o'ziga xos jihatlarga bog'lagan holda izohlash mumkin. Bu fan-texnika yangiliklarining respublikamizga jadallik bilan kirib kelishi, turli madaniyatlarning keng yoyilishi, millatlararo muloqotning kengayganligi, internet xizmatining kengayishi barobarida yosh avlodning respublikamizdan tashqarida mavjud bo'lgan ilmiy-madaniy yangiliklar bilan tezkor tanishish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lganliklari va boshqalar.

Shuning uchun ham, talabalarni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini loyihalashtirishda bir qator talablarga amal qilish lozim:

O'quv topshiriqlarining validligini ta'minlash, ularni tuzish va taqdim etishda talabalarning o'ziga xos xususiyatlari va axborotlarning kengligi hamda rang-barangligiga e'tibor qaratish lozim, bunday topshiriqlarni tanlashda o'quv jarayonining yaqin va uzoq maqsadlariga tayanish talab etiladi, ular talabalarning intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur,

Yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlarining tadrijiy tarzda bir-birini to'ldirishiga e'tibor qaratish, bunda talabalarning o'ziga xosliklari va o'quv vaziyatlarning o'quv dasturi bilan bog'liq tarzda tashkil etilishiga e'tibor qaratish talab etiladi; Taqdim etiladigan o'quv topshiriqlari o'z maromiga ko'ra ta'sirchan, o'quvchilarning hissiyotlarini

qo'zg'atishlari, ularning intellektual quvvatlarini ro'yobga chiqarishlari va intellektual faoliyatga undash imkoniyatiga ega bo'lishi, o'quv jarayonida talabalarga taqdim etiladigan topshiriqlar, har bir individual guruhning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishiga erishish talab etaladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni uchta asosiy davrga bo'lgan holda intellektual jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Ular reproduktiv, intellektual-mahsuldor hamda bashoratlovchi bosqichlar.

O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishning dastlabki davrida pedagogik vositalar tizimi ularni o'quv jarayonida intellektual faoliyatga undashi lozim. Ikkinchi davrida esa, o'qituvchining asosiy e'tibori o'quvchilarni intellektual rivojlantirishning mazmunli-jarayonli yonalishiga ko'chiriladi. Bu jarayonda intellektual vazifalarni yechishda o'quvchilarning dastlabki o'ziga xosliklari va iqtidorlari yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Uchinchi davrda, pedagogik vositalar tizimi o'quvchilarda intellektual va hissiy-ixtiyoriy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Xulosa qilib, yosh avlodni individual jihatdan rivojlantirishda ularning har tomonlama qobiliyatlarini, qiziqishlarini, orzu-istaklarini inobatga olingan holda dars jarayonlari tashkil etilsa, maqsad sari samarali natijaga erishiladi. Individual yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini, o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini to'g'ri rivojlantirishiga, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodkorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Otaboyeva Z.G'. O'smirlarda vatanparvarlik tarbiya jarayonida ulardagi ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi omil. Экономика и социум. 11 (78) 301-304-b.
2. Azimova Z.E. Otaboyeva Z.G. Talabalardaklasterli metodi orqali xamkorlik madaniyatini rivojlantirish. Экономика и социум, 2024 4-2 (119) 66-69-b
3. Ziyoda Azimova Ergashevna, Zulfiya Otaboyeva G'ofurovna. Oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik xususiyatlarini

rivojlantirish: oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik. 210-214-b

4. Otaboeva Zulfiya. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. Jurnal. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikni tashkil etish. 2023/5/26. 55-57-b

5. Зульфия Гофуровна Отабоева. Изучение теоретических аспектов кластеризации образовательного процесса и эффективного повышения практической деятельности. 2023. Conferencea. 81-83-б

6. Зульфия Гафуровна Отабоева. Взаимодействие преподавателей и студентов в учебном процессе Журнал. Universum: психология и образование. 2021. 26-27-б

7.3.F Отабоева. 2021. Шахс ривожланиши хакида тушунча. Журнал. Экономика и социум. 4-2 (83). 297-300-с

8. Otaboeva Z.G. Organizing pedagogical experimental work for the development of a culture of cooperation in the student community of higher education institutions. Экономика и социум. 2023. 285-288-b

9. Saliyeva S.A. Individual yondashuv asosidagi ta'limning ahamiyati. Экономика и социум. 2021 12-1 (127). 366-368-b

10. Saliyeva S. Bo'lajak mutaxassislarni intellektual rivojlantirish- pedagogik muammo sifatida. Журнал. Экономика и социум. 2023. 11 (114)-2. 404-407-b